

### BURCHOQDOSHLAR (FABACEAE) OILASIGA MANSUB AYRIM DORIVOR O'SIMLIKLARNING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI VA AHAMIYATI TASNIFI

*Hamroyeva Marg'uba Komilovna*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Biologiya fanlari dotsenti*

*Xalmuratov Mingboy Amirovich*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Biologiya fanlari nomzodi*

*Navbatova Charosxon Ismatulla qizi*

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti biologiya yo'nalishi 4-kurs talabalari*

*Sherpo'latova Shohsanam Panji qizi*

[shokhsanamsherpulatova@gmail.com](mailto:shokhsanamsherpulatova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Burchoqdoshlar oilasi vakillari hisoblangan va ilmiy tibbiyotda keng foydalanib kelinayotgan ayrim dorivor o'simliklar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Magnoliasimonlar, ra'nokabilar, rosoidae, fagales, fabaceae.

**Abstract:** This article talks about some medicinal plants that are considered representatives of the Burchagdash family and are widely used in scientific medicine.

**Key words:** Magnolias, Ranokabis, Rosoidae, Fagales, Fabaceae.

Burchoqdoshlar — magnoliyoifaga o'simliklar bo'limi, magnoliasimonlar ajdodi, ra'nokabilar qabilasiga mansub oila. Ko'proq bir yillik yoki ko'p yillik o'tlar, yarimbuta, buta yoki daraxtlardan iborat. Oila vakillarining ildizi-o'q ildiz tizimli. Ildizida tugunak bakteriyalar hamkorlikda hayot kechiradi. Ular shu o'simliklar ildizida yashab, havodagi erkin azotni o'zlashtiradi. Tugunak bakteriyalar tuproqni azotli birikmalarga boyitib, tuproq hosildorligini oshiradi. Poyalari tik o'suvchi, ilashuvchi, o'raluvchi yoki yotib o'suvchi bo'ladi. Ko'pchiligida barglar murakkab yoki oddiy, yonbargchali yoki yonbargchasiz bo'lib, o'ziga xos tuzilishga ega, uchbargchali, toq yoki juft patsimon, ikki karra patsimon murakkab barglar uchraydi, ketma-ket joylashgan. Ba'zi o'simliklar yonbargchalaridan yoki toq patsimon murakkab barglarning uchidagi toq bargchasidan tikan hosil bo'ladi. Yaxshi rivojlanmay nobud bo'lgan toq bargcha o'rnida tikan hosil qilishi mumkin. Gullariqiyshiq, ikki jinsli, shingil, bosh(kallak)cha xilidagi to'pgulga joylashgan. Gulkosachasi yarmigacha qo'shilgan 5 ta gulkosachabargdan tashkil topgan. Gultoji kallak shaklida bo'lib, 5 ta gultojibargdan hosil bo'lgan. Ikki yon tomonda tagida joylashgan 2 ta qo'shilgan gultojibarg—"qayiqcha", ikki yonida joylashgani "qanotcha" ("eshkakcha"), ular ustida yirikrog'i—"yelkancha" ("bayroqcha") deyiladi. Changchilari 10 ta, ulardan 9 tasining iplari bir-biri bilan qo'shib ketgan, o'ninchisi esa erkin, urug'ochisi 1 ta. Ko'pincha xashorotlar yordamida chaglanadi. Mevasi dukkak, 1 ta mevabargdan iborat. Quruq yoki sersuv, bir yoki ko'purug'li bo'lib, yuqoridan ikki pallaga bo'lib ochiladi. Burchoqdoshlar

oilasi 650 turkumga mansub 18000 turni o'z ichiga oladi. Bu oila vakillari Yer sharining hamma quruqliklarida uchratish mumkin. O'zbekistonda esa 35 turkumga oid 422 turi o'sadi.

### **BURCHOQDOSHLAR OILASI SISTEMATIKASI:**

Bo'lim: Yopiq urug'lilar bo'limi – Magnoliophyta

Sinf: Ikki urug'pallalilar ajdodi – Magnoliopsida

Sinfcha: Ra'nokabilar - Rosoidae

Qabila: Burchoqnamolar - Fagales

Oila: Burchoqdoshlar – Fabaceae

**Shirinmiya(Glycyrrhiza glabra)** - Fabaceae oilasiga mansub ko'p yillik o'simlik. Balandligi 50-150 sm. O'simlikning yer osti qismi asosiy xom ashyo hisoblanib, ular asosiy ildiz, ko'p yarusli vertikal va gorizontal ildizpoyalardan va ularni tuproqda ushlab turuvchi qo'shimcha ildizlardan iborat. Shirinmiya ildizi 8 m chuqurlikka kirib borib, odatda yer osti suv sathigacha yetib boradi. Yer usti poyalari asosiy ildizdan, shuningdek, vertikal va gorizontal ildizpoyalardan o'sib chiqib, har bir tuplar vegetativ ko'payib bir necha 10 m<sup>2</sup> maydonni egallaydi. Poyasi silliq yoki siyrak kalta tukli, odatda nuqtali bezli tuklar yoki bezli tikanlar bilan qoplangan. Barglari murakkab toq patsimon, uzunligi 5-20 sm gacha, 3-10 juft, bezchalar hisobiga yopishqoq, yaltiroq, zich, cho'zinchoq tuxumsimon yoki lansetsimon bo'laklardan iborat. To'pgullari uzunligi 5-12 sm, qo'ltiqdan chiqqan deyarli siyrak shingil, gulbandining uzunligi 3-7 sm. Guli uzunligi 8-12 mm oq-binafsha rangli gultojibarglar va o'tkir tishli kosachabarglardan tuzilgan. Mevasi cho'zinchoq, uzunligi 3,5 sm, to'g'ri yoki biroz qayrilgan, 1-8 urug'li, silliq yoki bezli tikanli. May- iyun oylarida gullaydi, mevasi avgust-sentyabrda yetiladi.

Ishlatilishi: Shirinmiya o'simligi ildizining qaynatma va damlamasi yo'tal bilan kechadigan o'pka kasalliklarida balg'am ko'chiruvchi, yuqori kislotali gastrit, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yarasida yallig'lanishga qarshi va og'riq qoldiruvchi, dorivor yig'malar tarkibida siydik haydovchi va ich suruvchi vosita sifatida buyuriladi. Undan tashqari shirinmiya ildizining galen shakllari adisson kasalligi, buyrak usti bezlarining gipofunksiyasida ishlatiladi. Buyrak usti bezlari funksiyasini stimullash uchun tizimli teri silida, allergik dermatitlarda, oddiy pemfigusda ishlatiladi. Ildiz kukuni farmatsevtikada tabletkalar va boshqa vositalar asosi sifatida, ya'ni dorilarni ta'mi va hidini yaxshilash uchun keng qo'llaniladi. Shirinmiya ildizidan quyidagi maqsadli dorivor preparatlar olinadi: glitsirizin kislotasi asosida glitsiram (bronxial astma, allergik dermatit, ekzema va boshqa kasalliklarni davolash uchun), flavonoidlar asosida likviriton va flakarbin (oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yarasini davolash uchun) preparatlari olinadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o'simlikdan olingan dori vositalari siydik haydash, og'riq qoldiruvchi, yaralarni tez bitkazuvchi, allergiyaga qarshi, tinchlantiruvchi, o'pka yo'llari kasalliklari va boshqa a'zolarining kasalliklarini oldini olishda ishlatilgan. Qizilmiya o'simligining o'zi vitamin, tabiiy bo'yoq va oshlovchi moddalariga boy o'simlik sifatida ham ma'lumdur. Kundan kunga uning ishlatilish sohasi kengayib bormoqda. Hozirgi kunda esa ildiz va uning ekstraktidan faqatgina tibbiyotda qo'llanilib qolmay, balki xalq xo'jaligining 20 dan ortiq tarmoqlarida unga bo'lgan ehtiyoj namoyon bo'lmoqda. Bunga asosiy sabab, ildiz kimyoviy tarkibining xilma-xilligidir va tayyorlangan dori vositalari o'zining kam zaharliligi, tirik organizmga mos kelishi va o'ziga xos faolligi bilan sintetik usulda olingan dori vositalaridan ajralib turadi. Faqatgina keyingi vaqtlarda sodir bo'layotgan tabiat qununlarining o'zgarishi

oqibatida Shirinmiya singari dorivor o'simliklarning tarqalish arealining qisqarishiga va o'z navbatida ularga bo'lgan talabning oshishiga olib kelmoqda.

**Soya.** Burchoqdoshlar (Dukkakdoshlar) oilasiga mansub bir yillik o't o'simlik. Poyasi tik o'suvchi, shoxlangan, balandligi 30–70 sm. Barglari uch bo'lakli (bargchalari yirik, tuxumsimon) murakkab bo'lib, poya va shoxlarida uzun bandi yordamida ketma-ket o'rnashgan. Mayda, oq yoki binafsha rangli (ba'zan qizil rangli), besh bo'lakli (kapalakguldoshlar oilasiga xos tuzilgan) gullari barg qo'ltig'idan o'sib chiqqan shingil gulto'plamiga joylashgan. Mevasi 1–4 urug'li dukkak. Iyul-avgust oylarida gullaydi, avgust-sentyabrda mevasi etiladi. Ovqatga soyaning yetilib pishgan urug'i, undan olingan moy hamda yetilib pishmagan, dumbul xolidagi mevasi – dukkagi ishlatiladi. Soya ovqatga ko'p ishlatiladigan, to'yimli hamda juda foydali o'simlik. Urug'idan un va krupa (yorma) qilinadi, moy va oqsil olinadi. Bu mahsulotlardan sut, tvorog, sirok, kolbasa, non, pechene, keks, konfet, shokoladlar, kofe, turli souslar, konservalar, makaronlar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlashda foydalaniladi. Dumbul holidagi dukkaklaridan tayyorlangan konserva juda foydali, to'yimli va juda yoqimli mahsulotdir.

Soya urug'i tarkibida 17–25 % moy, 30–45 % oqsil, qandlar, organik (olma va boshqa) kislotalar, vitamin V<sub>1</sub>, V<sub>2</sub>, S, E va K, provitamin D, karotin, izoflavon glikozidlar (genistin va boshqalar), mineral (kaliy, magniy, kalsiy, fosfor, temir, mis, marganets, rux, nikel, kobalt va boshqa elementlar tuzi) va boshqa moddalar bo'ladi. Urug'ini oqsil moddasining 80–90%i yuqori sifatli o'simlik oqsilidan iborat bo'lib, uning tarkibida hayot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan, almashtirib bo'lmaydigan hamma aminokislotalar (arginin, gistidin, lizin, triftofan, fenilalanin, metionin, treonin, leysin, izoleysin, valin) kiradilar. Soya urug'idan tayyorlangan sut o'zini ozuqaligi va to'yimliliigi, organizmda hazm bo'lishi, fizik xossalari va ko'rinishi bo'yicha sigir sutidan farq qilmaydi. Uni me'da yara kasalligida, me'da shirasi ko'p ajralish (gipersekretsiya) hollarida, qorin tifi, og'ir (keskin) o'tadigan va surunkali yuqumli kasalliklarda iste'mol qilishga tavsiya qilinadi. Me'dani gipersekretsiyasida soya suti sigir sutidan ko'proq foydali ekan. Chunki u sigir sutiga nisbatan me'da shirasini kamroq ajralishiga olib kelar ekan. Soya suti va undan olingan boshqa sut mahsulotlari hamda urug' uni (soya uni) yana qand (diabet) kasalligini davolashda ishlatiladi. Qand (diabet) va nur kasalliklarini davolash hamda markaziy asab tizimini (sistemasini) stimullash (qo'zg'atish) uchun meditsinada ishlatiladigan ba'zi dorivor preparatlarni olishda soyadan mahsulot sifatida foydalaniladi. Soyanning urug'idan Uoker shishi (rak shishini bir turi) ni hosil bo'lishini, uni hajmini va massasini o'sishdan to'htatuvchi va xatto kichik qiluvchi ta'sirga ega bo'lgan fitogemagglyutin (lektin) ajratib olingan. Fitogemagglyutin bunday ta'siri hozircha hayvonlarda o'tkazilgan tajribadan aniqlangan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'.Pratov., L.Shamsuvaliyeva., E.Sulaymonov va boshq. Botanika. Toshkent. Ta'lim nashriyoti. 2010.
2. D.Yormatova G'o'za qator orasiga soya ekish va moyli ekinlarni yetishtirish.- Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi. 2021.
3. 3. Ashermetov O.A., Badalov M.M. Shirinmiya yetishtirish bo'yicha qo'llanma. - Ò.: 1995.
4. 4. I.Tog'ayev. Yuksak o'simliklar sistematikasidan amaliy mashg'ulotlar. Namangan. Namangan nashriyoti. 2015.
5. 5. M.A.Jo'rayeva. Dorivor o'simliklar atlas. Toshkent. Noshir. 2019